

Elda aziz

Rivojlangan jamiyat qurish yoʻlidan dadil odimlayotgan yangi Oʻzbekistonda iqtisodiy va maʼnaviy yuksalishning bosh sharti boʻlgan taʼlim tizimiga juda katta eʼtibor qaratilmoqda. Taʼlim va tarbiya tizimini isloh qilish jarayonida albatta sohaning yetuk ustozlari fikr-mulohazalari, tashabbus va amaliy tajribasi muhim ahamiyatga ega. Oʻzining fidoyiligi bilan maktab taʼlimi tizimi rivojiga goh muallim, goh rahbar, goh nazariyotchi olim sifatida katta hissa qoʻshib kelayotgan ustozlardan biri Rahmatilla Musurmonovdir.

Milliy tarbiya jonkuyari

1950-yil 1-sentabrda Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi togʻli Sayyod qishlogʻida tavallud topgan Rahmatilla aka ogʻir sharoitlarga qaramay oʻrta maktabni aʼlo baholar bilan tamomladi. 1972-yili Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining fizika yoʻnalishiga hujjat topshirdi.

“*Kelajakni koʻra biladigan odam har bir maqsadining joyini aniqlab olishi, keyin uni tartib bilan amalga oshirishi zarur. Bizning ochkoʻzligimiz koʻpincha bu tartibni buzib, shunaqangi koʻp maqsadlarni egallashga chorlaydiki, bu asnodda maydalarini deb eng asosiy muddaomizni boy beramiz*”, degan edi fransuz faylasufi Laroshfuko. Bu hikmatni avvalboshdan qochqur anglagan Rahmatilla aka katta hayot boshidanoq oʻz orzu-maqsadlarini aniq belgilab olib, unga ogʻishmay, sadoqat va irdoda bilan intilishdan charchamay kelmoqda.

Oʻqituvchi, avvalo, oʻzi chuqur bilim-ga ega boʻlishi, maktab dasturi, metodik tavsiyalar bilan mahdudlanib qolmay, jahon taʼlim tizimida kechayotgan ilgʻor oʻzgarishlardan boxabar boʻlishi muhim. Yosh pedagog eng katta murabbiy – jahon adabiyotidan bahramandlikni odat qilgani hamkasblari orasida munosib eʼtibor qozonishiga sabab boʻldi. Koʻp oʻtmay teran fikrli, tashabbuskor muallim tizim rahbarlari diqqat eʼtiboriga muallim.

U 1977 – 1982-yillarda Qashqadaryo viloyati maorif boshqarmasida bosh inspektor, 1982 – 1984-yillari Shahrisabz tuman xalq taʼlimi boʻlimi mudiri oʻrinbosari, soʻngra 4 yil davomida Shahrisabz tuman xalq taʼlimi boʻlimi mudiri, 1988–1993-yillarda esa Qashqadaryo viloyati xalq taʼlimi boshqarmasi boshligʻi birinchi oʻrinbosari lavozimlarida ishlab, oʻz bilim va tajribalarini oʻqituvchi va murabbiylar ishtirokida farzandlarimiz qalbi va tafakkurini olmosdek jilolashga safarbat etdi.

Yangi pedagogik texnologiyalarni keng ommalashtirish, maktab oʻqituvchilarining oʻz ishiga mehr va masʼuliyat bilan yondashish erishish uchun boshqaruvda oqilona uslublarni qoʻllash viloyatda taʼlim tizimini ancha rivojlantirishga sabab boʻldi.

Bu koʻlumni kengaytirish uchun rahbariyat ustozni Qashqadaryo viloyati pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti prorektori lavozimiga tayinladi. Oradan ikki yil oʻtgach u Qashqadaryo viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi boshligʻi etib tayinlandi va 7 yil davomida viloyat taʼlim tizimiga samarali rahbarlik qildi. Oʻsha yillar davomida Qashqadaryo viloyati xalq taʼlimi tizimi respublika Xalq taʼlimi vazirligining diagnostik tahlillari

koʻra, 13-oʻrindan 4-oʻringacha koʻtarilgan. Iqtidorli oʻquvchilar bilan ishlash, maktablarda yetishmayotgan oʻqituvchilar safini toʻldirish maqsadida pedagogik sinflar tashkil etilib, ularni oliy pedagogika taʼlim muassasalariga yoʻnaltirish va shunday oʻquvchilar uchun 30 ta litsey tashkil etildi.

Mustaqillikdan soʻng yangi maktablar qurilib, eskilari taʼmirdan chiqarila boshladi. Bu ulkan oʻzgarishlar davrida viloyat xalq taʼlimi rahbari nafaqat taʼlim tizimi, balki usta moliyachi, mohir quruvchidan kam boʻlmagan malakaga ham ega boʻlishi lozim edi. U ulkan bunyodkorlik, yangi taʼlim tizimiga oʻtish jarayonlari davrida fidokorlik bilan mehnat qildi. Zamon talabiga mos ravishda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Menejment” yoʻnalishida ikkinchi mutaxassislik boʻyicha tahsil olib, iqtisodchi diplomiga ham ega boʻldi.

Ustoz Shahrisabzga qaytishni ixtiyor etdi. Tizim rahbarlari esa uni Shahrisabz tuman xalq taʼlimi boʻlimi mudiri lavozimiga oʻtish sharti bilan viloyat xalq taʼlimi rahbari vazifasidan ozod qilishga rozi boʻlishdi. Qadrdon tumanida uch yil mehnat qilgach, oilaviy ehtiyoj tufayli poytaxt Toshkent shahriga koʻchib keldi va Respublika taʼlim markazida boʻlim boshligʻi, 2006–2018-yillari Qori Niyoziy nomidagi Oʻzbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi sifatida mehnat qildi. 2019-yildan bugungi kunga qadar Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakultetining “Umumiy pedagogika” kafedrasida dotsenti lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Rahmatilla aka ayrim rahbarlar kabi faqat menejerlik qobigʻiga oʻralib qolmadi. Muttasil oʻz ustida ishlab, ilmiy faoliyatdan uzilmadi. 2008-yilda pedagogika fanlari doktori, professor Botir Mirzahmedov rahbarligida “Umumiy oʻrta taʼlim maktablari-da pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarish” mavzusida pedagogika fanlari nomzodi, kimyo fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston fan arbobi Gʻafurjon Muhamedov rahbarligida “Modernizatsiyalashgan taʼlim sharoitida oʻquv-tarbiya faoliyatini klaster texnologiyalari asosida takomillashtirishning ilmiy pedagogik asoslari” mavzusida pedagogika fanlari doktori dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, dotsent ilmiy unvoniga ega boʻldi. Shuningdek, u 20 ta oʻquv-metodik qoʻllanma, 6 ta monografiya, bitta darslik, 8 ta badiiy asar, 200 ga yaqin ilmiy maqolalar chop ettirdi. Uning umumiy oʻrta taʼlim sohasidagi ilmiy ishi boʻyicha yaratilgan oʻquv adabiyotlari, metodik ishlanma-



lardan bugungi kunda uzluksiz taʼlimning kasb-hunar va oliy taʼlim oʻquv jarayonlarida keng foydalanib kelinmoqda.

Shogird yetishtirmagan olim meva tugmaydigan daraxt kabidir. Shu bois pedagog 4 nafar mustaqil tadqiqotchi va izlanuvchi yoshlarning pedagogika boʻyicha falsafa doktori ilmiy ishlariga rahbarlik qilib kelmoqda. Ulardan 2 nafari yaqinda oʻz ilmiy ishini himoya qilish arafasida turibdi.

Ayni paytda Nizomiy nomidagi OʻzMPU qoshidagi Respublika oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazida koʻp yillardan buyon oʻquv mashgʻulotlarini olib borish bilan birga Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar aʼzosi hamdir.

“Olmaning tagiga olma tushadi” deganlaridek, Rahmatilla Musurmonov namunali oila boshligʻi, besh nafar oliy maʼlumotli farzandning otasi va oʻn ikki nafar nabiraning bobosidir. Katta qizi Nargiza filologiya fanlari nomzodi, Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.

Rahmatilla aka badiiy ijodga ham qiziqib, taʼkidlanganidek salmoqli badiiy asar yaratdi. Roman va qissalardan iborat bu ijodiy ishlar sababli u yaqinda Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi aʼzolisiga qabul qilindi.

Ustoz bilan suhbat jarayonida pedagogikaning mohiyati haqida bergan savolimizga quyidagicha javob qaytardi: “Maʼlumki, pedagog yunoncha “paydos” va “ago” soʻzlaridan olingan boʻlib, soʻzma-soʻz tarjima qilganda “bolani yetaklovchi” degan maʼnoni anglatadi. Qadimgi Gretsiyada pedagog soʻzi tom maʼnoda oʻz xoʻjayining bolasini qoʻlidan olib, uni maktabga kuzatib boradigan kishini anglatardi. Asta-sekin “pedagogika” soʻzi “bolani hayot yoʻlida yetaklab borish”, yaʼni uni tarbiyalash va oʻqitish, maʼnaviy hamda jismoniy rivojlanishga yoʻnaltirish sanʼati sohiblari-ga nisbatan kengroq maʼnoda qoʻllanila boshladi. Vaqt oʻtishi bilan bilimlar toʻplanib, bola tarbiyasi boʻyicha maxsus fan paydo boʻldi. Nazariy jihatlar ishlab chiqilgach, pedagogika bolalarni tarbiyalash va oʻqitish faniga aylandi”.


Ha, ustoz Rahmatilla Musurmonovning hayoti va faoliyati u kishini haqiqiy oʻzbek ziyolisi, katta harflar bilan yoziladigan PEDAGOG, yoxud xalqimiz tili bilan aytganda MUALLIM deb atashga arziydi. Zero, ustoz hamon yillarga parvo qilmay, oʻqish, izlanish, ziyo taratish jarayonidadir. Izlanishlardan aslo tolmang, gʻayrat-ingiz soʻnmasin! Shogirdlaringiz ibrat-ingizdan kuch va namuna olishaversin!

Amirqul KARIM,
Xalqaro “Oltin meros” XJF raisi,
shoir, publitsist va tarjimon

Xotira aziz

Rahbarlarni tayyorlashda mohir tashkilotchi

Shu kunlarda Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi-sining muxbir aʼzosi, tarix fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi Mirzagʻani Iskandarov tavallud topganiga 100 yil toʻladi.



U deyarli yigirma yil davomida

Toshkent oliy partiya maktabi, Siyosatshunoslik va boshqaruv institutini boshqargan, shuningdek, rahbar kadrlarning malakasini oshirish boʻyicha Respublikalararo kurslar faoliyatiga rahbarlik qilgan. Olimning 60 dan ortiq ilmiy nashrlari, jumladan, monografiyalari, jamoaviy monografiyalardagi uning muallifligidagi boblar va koʻplab maqolalarida nazariya bilan amaliyotning uygʻunligi yaqqol namoyon boʻladi. Shu bois uning asarlari nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy ilmiy jamoatchilik va amaliyotdagi mutaxassislar tomonidan ham keng eʼtirof etilgan. Oʻzbekistonning bir qator viloyatlarida ustozning qishloq aholisi turmush madaniyatini yuksaltirish va yashash sharoitlarini yaxshilashga oid amaliy tavsiyalari keng qoʻllanib kelgan. Uning ilmiy diqqat markazida doimo mamlakat hayotining eng dolzarb masalalari turgan. U mamlakat rahbariyatining siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy va maʼnaviy sohalarida olib borgan tub islohotlarini faol qoʻllab-quvvatlagan. Olim oʻz ishlarida boshqaruv tizimi rahbarlarining ongilligi, tashabbuskorligi va chuqur professionalligi har qanday jamoaning salohiyatidan foydalanish darajasini bevosita belgilashini taʼkidlab kelgan. Yuqori malakali boshqaruv va rahbar kadrlarni tayyorlash sohasida mohir tashkilotchi sifatida domla oʻquv rejalar va dasturlarini takomillashtirish, taʼlim shakli va usullarini boyitish, tinglovchilarning mustaqil ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishga katta eʼtibor bergan. U oʻquv jarayonini muammoli oʻqitish tamoyillariga oʻtkazish, zamonaviy va samarali oʻqitish shakllarini, shu jumladan, test sinovlari, oʻqitish texnikasidan foydalanish, ilmiy-amaliy konferensiyalar, “davra suhbatlari” va ishbilarmonlik oʻyinlarini taʼlim jarayoniga joriy etishni faol qoʻllab-quvvatlagan.

Olim respublika rahbarlari, vazirlar, yirik xoʻjalik rahbarlari, ilm-fan va sanʼat arboblari bilan uchrashuvlarda tez-tez ishtirok etgan. Professorning xizmatlari bir qator davlat mukofotlari bilan taqdirlangan, “Mehnat qizil bayroq” ordeni, koʻplab medallar va faxriy yoriqlar bilan mukofotlangan, shuningdek, unga “Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi” faxriy unvoni berilgan. Markaziy Osiyodagi eng yirik Siyosatshunoslik va boshqaruv institutining rahbari sifatida u oliy oʻquv yurtining moddiy bazasini yaxshilash, uni zamonaviy hisoblash texnikasi bilan jihozlash, professor-oʻqituvchilar va tinglovchilarning kompyuter savodxonligini oshirishga doimiy eʼtibor qaratgan. U nafaqat tinglovchilar va oʻqituvchilarga mehribon va gʻamxoʻr, balki talabchan va masʼuliyatli rahbar sifatida tanilgan. Pedagog olimning boy nazariy va amaliy tajribasi bugungi kunda ham uning koʻplab shogirdlari tomonidan faol qoʻllanilib, yangi Oʻzbekiston kadrlarini tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Bugungi kunda har jabhada yuz berayotgan tub oʻzgarishlarni koʻrish nasib etganida ustoz quvonib, shodlikdan yosh avlodni oʻzi kabi Vatanni sevishga, unga yurakdan xizmat etishga chaqirardi.

Ahmadali ASQAROV,
Oʻzbekiston FA akademigi,
“Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi,
Oʻzbekiston Milliy pedagogika universiteti professori

Fanimiz fidoyilari

Odamlar oʻziga ilk taʼlim bergan, unga dunyo maʼnaviy va maʼrifiy durdonalari xazinasini ochib oluvchi kalitni qoʻliga tutqazgan zotni ustoz deb ulugʻlaydi. Olamdagi barcha yaxshilik, bilim va mehr-saxovat ustozlar tufaylidir. Pedagogika fanlari doktori, professor, 1-darajali “Sogʻlom avlod uchun” ordeni sohibi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim hamda Xalq taʼlimi aʼlochisi, respublikamizda jismoniy tarbiya va sportning tolmas targʻibotchisi Talʼat Usmonxoʻjayev – bolalar jismoniy tarbiyasi va sportni jahon andozalari asosida keng rivojlantirish hamda milliy harakatli oʻyinlarni aholining keng qatlamlari oʻrtasida muntazam targʻib etish yoʻlida hormay-tolmay mehnat qilayotgan fidoyi murabbiylardan biridir.



Sportimiz fidoyisi

Talʼat Usmonxoʻjayev 1932-yili Toshkent shahrining Beshyogʻ och dahasida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Jismoniy tarbiya texnikumini imtiyozli diplom bilan tugatgach, Moskvadagi Markaziy jismoniy tarbiya institutiga oʻqishga yuboriladi. Uni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkentda yangi ochilgan Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining “Sport oʻyinlari” kafedrasiga oʻqituvchilikka qabul qilinadi.

Talʼat Usmonxoʻjayevda sportga boʻlgan qiziqish juda erta, hali oʻrta maktabning boshlangʻich sinflaridayoq jismoniy tarbiya oʻqituvchisi Suren Javadovning taʼsiri ostida shakllangan edi. Toshkentdagi oʻsha paytdagi mashhur 90-maktabda oʻqish davrida u gimnastikaga mehr qoʻyib, astoydil shugʻullandi. Bundan 70 yil muqaddam ochilgan Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida pedagogik faoliyatini boshlagach, ustoz koʻplab egzu ishlarni amalga oshirgan, viloyatlarga borib, iqtidorli yoshlarni institutga jalb etishda jonbozlik koʻrsatgan.

U oʻqituvchi va sportchi sifatida sport sohasida milliy kadrlarni yetishtirishga hissa qoʻshdi. Oʻsha kezlarda viloyatlardan kelgan yoshlarning aksariyati oʻzbek tilidagi maktablarni tugatganliklari sababli rus tilini yaxshi bilmas edilar. Koʻp fanlar rus tilida oʻqitilishi tufayli bu ularni puxta oʻzlashtirishda qiyinchiliklar tugʻdirgan. Shunda yosh oʻqituvchi T.Usmonxoʻjayev tashabbus koʻrsatib, basketbol va harakatli oʻyinlarga oid maʼruza va qoʻllanmalarni oʻzbek tiliga tarjima qilib, darslarni oʻzbek tilida oʻta boshlagan. Bu esa oʻsha paytdagi kafedra va institut rahbariyatiga yoqmagan, uni bir necha marta majlislarda tanqid qilishgan. Ularning fikricha, sport atamalarini tarjima qilinmas emish. Oʻzbek tilining fidoyisi boʻlgan T.Usmonxoʻjayev institutdan ketishga majbur boʻlgan. Keyin u Qori-Niyoziy nomidagi Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida laboratoriya mudiri boʻlib ishlagan va sirtqi aspiranturada oʻqigan.

Bolalar jismoniy tarbiyasi, ularning salomatligini muhofaza qilish, yosh fiziologiyasi, maktab gigiyenasi va ayniqsa milliy harakatli oʻyinlar yosh olimning izlanish obyekti-ga aylangan. Natijada 63 yil avval uning birinchi kitobi – “Harakatli oʻyinlar” nashr etilgan. U sportni

milliy qadriyatlar bilan bogʻlashga intilib, “Oʻzbekcha uqalash (massaj)ning sportchilarning mushak ish faoliyatiga taʼsiri” mavzusida ilmiy izlanishlar olib borgan. Poytaxtimizdagi oʻzbekcha hammomda sportchilar, kurashchilar, bokschilar va fuqarolarning vazni, qon bosimi, mushak holati kabi oʻzgarishlarni har kuni qayd etgan. Tadqiqotlar natijasida sharqona hammomdagi uqalash nafaqat tozalikka, balki charchoqni yoʻqotish va tanani sogʻlomlashtirishga xizmat qilishi isbotlangan.

Afsuski, yosh olim tadqiqotlarini yakunlashiga imkon berilmagan. Katta yigʻinlarning birida uni keskin tanqid qilishgan. Oʻsha davrda jismoniy madaniyat va sportni ilmiy tadqiq qilish shart emas, degan qarashlar ustun edi. Hatto “Jismoniy tarbiyadan ham ilmiy ish qilib, fan nomzodi boʻlish shartmi?” degan gʻayriilmiy bahslar ham yuritilgan.

Mustaqillikdan soʻng esa jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari rivojlanib, ularning natijalari amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Bu yoʻnalishdagi ilmiy faoliyat Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti zimmasiga yuklandi. Mazkur institutda faoliyat yuritgan Talʼat Usmonxoʻjayev Ilmiy kengashning faol aʼzosi sifatida yosh olimlarga nazariy va amaliy yordam koʻrsatgan.

T.Usmonxoʻjayev jismoniy tarbiya va sport, milliy sport turlarining nazariy va amaliy jihatlar bilan shugʻullanish asnosida bir nechta ilmiy-uslubiy laboratoriyalarni tashkil etib, ularni boshqargan. Jumladan, poytaxtimizdagi Mitrofanov nomidagi suv havzasi qoshida kichik laboratoriya tashkil etib, unda yosh sportchi suzuvchilarning mushak faoliyatini Sankt-Peterburgdan olib kelingan polidnamik asbob yordamida tadqiq qilgan va sezilarli natijalar olgan.

U bilimi, zehni va irodasini ishga solib, Moskva Tibbiyot fanlari akademiyasining Pediatrya institutida 1968-yili “Мышечная работоспособность школьников в условиях жаркого климата Узбекистана” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Talʼat Usmonxoʻjayev oʻz ilmiy va pedagogik faoliyatini mamlakatimizda bolalar va oʻsmirlar sporti, jismoniy madaniyati, jismoniy tarbiyaning nazariy asoslarini rivojlantirishga bagʻishlagan.

U Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ilmiy kengashda “Bolalarni harakat faolliklari bilan bogʻliq tarzda jismoniy kamolotga yetkazishning ilmiy-pedagogik asoslari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Toʻqson yoshdan oshgan ustoz qariyb 70 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida yigirmadan ortiq fan nomzodi va doktorlariga ilmiy rahbarlik qilgan. Koʻplab monografiyalari, darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar va tavsiyanomalar yaratgan. Shuningdek, u milliy harakatli oʻyinlar va sport turlarini tiklash, yoshlarimizda vatanparvarlik, milliy gʻurur, halollik va intizomni shakllantirishga qaratilgan qoʻllanmalarga ham mualliflik qilgan.

T.Usmonxoʻjayevning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi fidokorona mehnati yoshlar, xususan, qizlar va ayollar oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini targʻib etishga xizmat qilib kelmoqda.

Ustozning qalamiga mansub “Maktabgacha taʼlim muassasalarida jismoniy tarbiya”, “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” kabi darsliklar, shuningdek, rus, qozoq, tojik, turk, qirgʻiz va oʻzbek tillarida 5–11-sinflar uchun yaratilgan oʻquv qoʻllanmalari nashr etilgan.

Talʼat Usmonxoʻjayev yurtimizda milliy harakatli oʻyinlar va ular yuzasidan oʻtkaziladigan sport festival-larining ommalashishida ham fidoyilik koʻrsatmoqda. Festivalga aylangan “Alpomish oʻyinlari” shular jumlasidandir. U “Choʻpon”, “Boʻron”, “Chillak”, “Otib qochar” kabi tarixiy oʻyinlarni tiklash borasida ham jonkuyarlik qilib kelmoqda. Qiziq jihati shundaki, “Boʻron” va “Chillak” oʻyinlarini tahlil qilganda, ularning AQSH sport turlari “Regbi” va “Golf”ga oʻxshashligi aniqlangan, faqat bizda rivojlanmagan.

“Mehnat qilgan elda aziz”, deydi xalqimiz. Muborak toʻqson uch yoshdan oshgan Talʼat Usmonxoʻjayevning sogʻlom turmush tarzini targʻib etish, bolalar hamda oʻsmirlar sportini rivojlantirish va milliy harakatli oʻyinlarni tiklash yoʻlidagi serharakat mehnati munosib taqdirlangan. U 1999-yilda 1-darajali “Sogʻlom avlod uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Nuriddin CHORSHAMIYEV,
Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti